



O'ZBEK VA KOREYS TILIDA GAPNING IFODA MAQSADIGA KO'RA TURLARI, O'XSHASHLIK VA FARQLAR

Jamolxonova Sevinch

Namangan davlat chet tillari instituti talabasi

Erkinov Ahrorbek

Namangan davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali Koreys tili va O'zbek tillarida gapning ta'rif, ifoda maqsadiga ko'ra turlari, ifodalanishi tavsifi, ularga doir misollar keltirib o'tiladi. Gapning tasniflanishini qiyosi, o'xshash va farqli tomonlari va nutqda qo'llanish jarayoni haqida yoritib berilgan. Koreys tilining Oltoy tillar oilasi guruhiga ham mosligini hisobga olinsa kelgusidagi qiyosiy tipologiya kabi fanlarni o'qitilishida muhim manba sifatida ushbu maqola xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: gapning tarifi, gap strukturasi, darak gap-평서문, so'roq gap-의문문, buyruq, iltimos gap-명령문, undov gap-감탄문, dona miqdor sonlar.

Mazkur maqolada koreys va o'zbek tillarini o'rganishda tillarning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib, bunda har bir koreys tilini o'rganuvchi bilishi lozim bo'lgan muhim jihatlar hamda o'zbek tilini o'rganayotgan xorijlik qaysi talablarga o'z e'tiborini qaratishi lozimligi yoritilgan. Bundan tashqari, koreys va o'zbek tillarida gapning tasniflanishiga bag'ishlangan bo'lib, unda koreys tili va o'zbek tilida gap haqida so'z boradi. Koreys tili va O'zbek tillarida gapning ta'rif, ifoda maqsadiga ko'ra turlari, ifodalanishi tavsifi, ularga doir misollar keltirib o'tiladi. Gapning tasniflanishini qiyosi, o'xshash va farqli tomonlari va nutqda qo'llanish jarayoni haqida so'z boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VAMETODLAR

Har qanday gap tuzilish jihatidan turlarini uning grammatik asosi belgilab beradi. Gapning grammatik asosini bosh bo'laklar: ega va kesim tashkil etadi. Ko'pgina olimlar koreys tilini o'zbek tili singari oltoy tillar guruhiga kiritishadi. Lekin kam qism bo'lsada ba'zi olimlar tunis tillar oilasiga kiritishadi.

Koreys va o'zbek tilida ega va kesim ishtirokiga ko'ra gap tuzilish jihatidan ikki turga bo'linadi: sodda va qo'shma gaplar. Bitta grammatik asosga ega bo'lgan ma'lum bir fikrni va his hayajonni ifodalovchi gaplar sodda gaplar deyiladi. Ikki va undan ortiq grammatik asosdan iborat bo'lib nisbatan murakkabroq fikrni ifodalovchi gaplar qo'shma gaplar sanaladi. Sodda gaplar grammatik asosning tarkibiga ko'ra 2 xil: a) bir tarkibli gaplar; b) ikki tarkibli gaplarga bo'linadi. Grammatik asosi ikki bosh bo'lak (ega va kesim) dan iborat gaplar ikki tarkibli gaplar sanaladi. [Фуломов А.Ф. Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили.:1965:52]

Koreys tilida gap strukturasi o'zbek tili bilan deyarli bir xil (ega, ikkinchi darajali bo'laklar, kesim). Quyidagi misolda o'xshashliklar keltirilgan:



m) 철수는 학교에서 한국어를 공부해요.

Cholsu maktabda korey tilini o'rganadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Albatta tilshunoslikning har bir yo'nalishida gap va ularning muammolarini tahlil qilish yangicha yondashuvlarni va usullarni talab qiladi. Gaplar ham o'z mazmun mohiyatiga, ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko'ra har xil bo'ladi. Hozir biz gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ko'rib chiqsak. Har bir gapda ma'lum bir maqsad, niyat yoki his-hayajon ifodalanadi: So'zlovchi biror narsa, voqea-hodisa haqida xabar qiladi, yoki o'ziga noma'lum bo'lgan narsa va voqea-hodisalar to'g'risida ma'lumot olishni istaydi, tinglovchiga biror ishni bajarish bo'yicha buyruq-xitobini bildiradi. Gaplar ana shu maqsadiga ko'ra turlicha quriladi: o'ziga xos grammatik xususiyatga ega bo'lib, alohida ohang bilan talaffuz qilinadi. Har bir ma'lum gap kishining o'y-xayollari orqali yuzaga chiqadi. Insonlar gapni qay holatda aytishiga ko'ra gapning turlari yuzaga keladi. O'zbek tilida, jumladan koreys tilida ham, gap ifoda maqsadiga ko'ra 4 turga bo'linadi:

1. darak gap-평서문;
2. so'roq gap-의문문;
3. buyruq, iltimos gap-명령문;
4. undov gap-감탄문.

Koreys tili	O'zbek tili
저는 집에 책을 읽습니다.	Men uyda kitob o'qiyman.
선생님은 어디에 가셨니?	Ustoz qayerga ketdilar?
내일 일찍 오세요.	Ertaga ertaroq keling.
이것 좀 먹어!	Buni ozgina ye!

Darak gap-(평서문) borliqdagi voqea-hodisa, narsalarni tasdiq yoki inkor yo'li bilan xabar beruvchi gap darak gap hisoblanadi. Gap oxirida nuqta qo'yiladi. Koreys tilida -는다, -니다, 은다, -습니다, 습니다 bilan ifodalanib, norasmiy shakli -아요, -어요, -여요, -해요 qo'shimchalari orqali yasaladi.

저는 학생이에요. Men talabaman.

So'roq gap-(의문문)- 선택의문문, 판정의문문, 설명의문문, 반문의문문, 수사의문문, 간접의문문 kabi turlari mavjud bo'lib, so'zlovchi uchun ma'lum bo'lmagan voqea-hodisa, harakat, holat haqidagi so'roqni ifodalovchi gapga so'roq gap deyiladi. Koreys tilida -니까?/습니까?, -아요?/어요?, -아/어?, -냐?, -니?, --나? 고?, -지?-죠?-(으)래요?, -(으)니까요? kabi qo'shimchalar orqali so'roq gap yasaladi. Gap oxirida so'roq belgisi qo'yiladi.

오늘은 집에 몇 시에 가요? Bugun uyga soat nechchida borasan?



Buyruq gap-(명령문buyruq, 요청문iltimos)- so'zlovchining biror narsaga buyurishi, undashi, iltimos qilishi, nasihati kabi fikrni ifodalashga buruq gap deyiladi. Koreys tilida buyruq gaplar -아/어라, (으)십시오),-아/어, -(으)라, -(으)렴, -게 qo'shimchalari orqali ifodalanadi.

좀 기다리세요. Biroz kutib turing.

볼펜 좀 빌려 주세요. Iltimos ruchkangizni berib turing.

Undov gap(감탄문) koreys tilida quyidagi qo'shimchalar orqali구나, -군, -네 bilan yasaladi. Undov gaplarning talaffuzi gapdagi kesimga qo'shilgan qo'shimchalar orqali hosil qilinadi.

벌써 꽃이 피었네. Allaqachon gullar ochildi!

Dona miqdor sonlarni ifodalanganda o'zbek tili bilan koreys tilining gap tartibi bir oz o'zgaradi.

m)

Koreys tili	O'zbek tili
책 두 권 주세요. Kitob 5dona bering.	5ta kitob bering.
여동생 세 명 있어요. Singlim 3ta bor.	3ta singlim bor

XULOSA

O'z ona tilisi bilan farq qiladigan miqdor sonni ishlatib, gap tuzganda gap tartibini yaxshilab o'rganish zarur. Yuqoridagi misolda miqdor sonlarni gap tartibidagi farqi keltirilgan bo'lib, yana ahamiyatlisi o'zbek tilidagi 'ta' qo'shimcha koreys tilida nimaligiga qarab turli ko'rinishda ifodalanadi. Shuning uchun dona miqdor sonni alohida mavzu sifatida keng qamrovda o'qitish maqsadga muvofiq.

Ushbu maqola ham hozirgi lingvomadaniy almashinuv hisobiga yangi koreys tilini o'rganishni boshlagan talabalar uchun katta qiziqish uyg'otadi va tilni o'rganish amaliyotida keng qo'llanilishi uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

REFERENCES

1. Мамасодикова, М. Ж. (2024). РУССКАЯ РОК-ПОЭЗИЯ КАК ЛИТЕРАТУРНОЕ И ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ. World of Scientific news in Science, 2(1), 403-412.
2. Холмуродова, Д., & Ибрага, И. (2024). КАТЕГОРИЯ РОДА ИМЕНИ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОГО В РУССКОМ ЯЗЫКЕ. Research and Publications, 1(1), 11-22.
3. Холмуродова, Д. Х. (2023). СЛОЖНОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ ТИПА РАССУЖДЕНИЯ. Scientific Impulse, 1(7), 775-778.
4. Baqoyev, Navrozzjon (2023). O'ZBEK TILIDAGI "QO'L" SO'ZI VA U QATNASHGAN IBORALAR SEMANTIKASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (2), 414-417.
5. Bakoev, N., & Abdumutalova, M. (2023). YAPON TILIDAGI KANSAI SHEVASI VA O'ZIGA XOSLIGI. Interpretation and researches, 1(17).
6. Bakoev, N., & Yuldasheva, S. (2023). YAPONIYA TA'LIM TIZIMI. Interpretation and researches, 1(17).



7. Bakoev, N., & Ravshanov, S. (2023). YAPON TILIDAGI IYEROGFLAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 84-87.
8. Bakoev, N., & Sheraliyeva, F. (2023). YAPONIYA TURIZM SOHASI VA RIVOJLANISHI. Interpretation and researches, 1(18).
9. Bakoev, N. (2024). ONE OF MODERN LANGUAGE TEACHING METHODS IS TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) DISADVANTAGES AND ITS SOLUTIONS. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 53–57. Retrieved from
10. Шарофиддинов, М. М. (2016). Из истории железной дороги Бухары. Молодой ученый, (9), 962-964.
11. Voxobjonovna, X. S., & Abduraxmonovna, X. D. Formation of Skills of Artistic Creativity in Preschool Children. International Journal on Integrated Education, 3(12), 484-486.
12. Абдухоликова, Н. А. (2022). ЖАМИЯТ АХБОРОТЛАШУВИНИНГ ИЖОБИЙ САЛБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. Conferencea, 125-129.
13. Шарофиддинов, М. М. (2016). Развитие воздушных путей Узбекистана в годы независимости. Молодой ученый, (12), 717-718.
14. Mamasodikova, M. (2022). THE CATEGORY OF APPRAISAL IN RUSSIAN ROCK POETRY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 130-133.
15. Umida Abdurasulova, & Bakoev Navruzjon (2024). TILLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI. Science and innovation, 3 (Special Issue 27), 84-87. doi: 10.5281/zenodo.11079778
16. Bakoev, N. (2024). ONE OF MODERN LANGUAGE TEACHING METHODS IS COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING'S DISADVANTAGES.«. МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА.
17. Собиров, А. Б. Ў. (2022). Ключевые слова в тексте. Science and Education, 3(12), 1182-1187. Работы. –М. 1985.
18. Абдусаматов, Мавлон Мукаррамжон Угли; Парадоксальность и структурная специфика «Опытов» М. Монтеня, Science and Education, 3, 6, 2022, ООО «Open science» 1565-1572
19. Собиров, А. Б. Ў. (2022). Личность ВП Астафьева в эпистолярном наследии. Science and Education, 3(6), 1646-1651.
20. Собиров, А. (2024). МЕТАФОРИЧЕСКИЕ ЭПИТЕТЫ И ИХ СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ. NRJ, 1(2), 208-211.
21. Собиров, А. (2024). РЕДКИЕ ЭПИТЕТЫ В ПОЭТИЧЕСКОЙ РЕЧИ ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА. NRJ, 1(3), 965-968
22. Sobirov, A. (2023). THE EPISTOLARY GENRE IN THE LINGUISTIC AND CULTURAL ASPECT. Modern Science and Research, 2(12), 1336-1339.
23. Абдусаматов, М. (2024). ПРОБЛЕМЫ АДЕКВАТНОГО ПЕРЕВОДА ЭССЭИСТИЧЕСКОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК. Research and Publications, 1(1), 98-110.
24. Saida, X. (2024, June). HISTORICAL ROOTS OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE THINKING SKILLS. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 127-128).



25. Xolmatova, S. V. (2024). TALABALARNI KREATIV FIKRLASH KO 'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JARAYONI. Inter education & global study, (5 (1)), 426-430.